

SULTONGA MUNOSIB TUHFA

*Raximova Saboxat Raxmonqulovna,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Mahmudov Jasur Husenovich, ilmiy rahbar
saboxatraximova1975@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo'lyozmalar institutida saqlanayotgan Tabibiy taxallusi bilan mashhur Ahmad ibn Ali Muhammadning "Devoni Tabibiyi porsiy" yoki "Devoni forsiyi Tabibiy" nomlari ostida saqlanayotgan birinchi forsiy devoni "Tuhfat us-sulton"ning uchta nusxasi – ikkita qo'lyozma va bitta toshbosmasi tavsiflanadi.

Kalit so'zlar. Xorazm, tuhfa, sulton, xon, qo'lyozma, toshbosma, devoni porsiy.

SULTAN İÇİN UYGUN HEDİYE

*Rakhimova Sabakhat Rakhamonkulovna
Muhammed el-Horazmi adına uzmanlaşmış
anadil ve edebiyat alanında okul öğretmeni*

Özet. Makalede, Özbekistan Bilimler Akademisi Ebu Reyhan Beruni Doğu Elyazmaları Enstitüsü'nde "Divani Tabibiyi Farsça" veya "Divani Farsiy Tabibiy" adlarıyla muhafaza edilen ilk Farsça divan "Tuhfat üs-sultan"ın iki el yazması ve bir taşbaskı olmak üzere üç nüshası anlatılmaktadır.

Anahtar kelimeler. Harezm, hediye, sultan, han, el yazması, taş baskı, divan (Farsça).

ДОСТУПНЫЙ ПОДАРОК СУЛТАНУ

*Рахимова Сабоҳат Раҳмонкуловна,
Учитель родного языка и литературы специализированной
школы имени Мухаммада аль-Хорезми*

Аннотация. В статье описываются три экземпляра первого персидского дивана «Тухфат ус-султан» - две рукописи и одна литография, хранящиеся в Институте восточных рукописей имени Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана, под названиями «Дивани Табибий Персидский» или «Дивани Фарсий Табибий».

Ключевые слова. Хорезм, дар, султан, хан, рукопись, каменный оттиск, диван персидский.

A GIFT FOR A SULTAN

*Rakhimova Sabokhat Rakhamonkulovna
Teacher of native language and literature at the specialized
school named after Muhammad al-Khwarizmi*

Abstract. The article describes three copies of the first Persian divan "Tuhfat us-sultan" - two manuscripts and one lithograph - kept at the Institute of Oriental Manuscripts named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan, under the names "Divani Tabibiyi Persian" or "Divani Farsiy Tabibiy".

Key words. Khorezm, gift, sultan, khan, manuscript, stone print, divan Persian.

Zullisonaynlik an'anasi Xorazm adabiy muhiti uchun qadimgi an'anadir. Hijriy 754, milodiy 1353 yillarda Oltin O'rda xonligi davrida yozilgan Muhammad Xorazmiyning "Muhabbatnama" asaridagi quyidagi baytlar fikrimizning yorqin dalilidir:

*Ko 'ngul bahrinda ko 'p gavharlarining bor,
Ochunda porsiy daftarlaring bor!*

Demak, XIV asrdayoq Xorazm adabiyotida porsiy daftarlarga ega bo'lgan shoirlar bo'lishgan. Shu ma'noda o'zbek klassik adabiyoti tarixining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhitida ham zullisonaynlik an'anasi uchratamizgan. Zero, ma'rifatparvar shoh va shoir Muhammad Rahimxon soniy – Feruz rahnamoligidagi ushbu davr adabiyotida ajdodlar an'anasisiga sodiq qolgan holda bir qator devonlar yaratildi va ularda ikki tillilik an'anasi keng rivojlantirildi. Tabibiy taxallusi bilan mashhur Ahmad ibn Ali Muhammadning forsiy va turkiy tillardan iborat 5 ta alohida nomdag'i devoni, 2 ta tazkiras, 2 ta tarjima asari yetib kelgan. Birgina forsiy devonida shoirning 544 ta g'azali va 125 ta muxammasing kelishi forsiy she'riyatining keng qamrovli ekanidan dalolatdir.

№7083 inventar raqamli qo'lyozma. .1

"Tuhfat us-sulton" devoni. Kotibi noma'lum. Oxirida xotima va kolofon yo'q. Ushbu qo'lyozmaning boshida 3 ta bo'sh varaq bo'lib, ulardan birinchisining chap burchagida "م" harfi yozilgan. Keyin teparoq qismi o'rtasida (Devoni Tabibiyi forsiy) deb yozilgan. Mazkur qog'ozlarning uchinchisida to'rtburchak kichkina muhr bosilgan bo'lib, uning ichiga "Inst-t Vostochnix rukopisey 7083 AN Uzbekistan g.Tashkent" degan rus tilidagi yozuvlar bor. Ayni o'sha uchinchi qog'ozning orqa tomonidan, ya'ni b-sahifasining tepasiga qora siyohda 1 raqami qo'yilgan bo'lib, devonning asosiy sahifalari shu yerdan boshlanadi. Dastlab qizil siyohda "**Musammo ba Tuhfat us-sulton**" ("Tuhfat us-sulton" ismi bilan nomlandi) so'zlari undan keyin qora siyohda "Bismillahir rahmonir raiyim" bilan g'azallar boshlangan. Birinchi g'azal matla'si:

*Ey yofta az sun'i tu yaksar bino arzu samo,
Ovardai az kofu nun iyjodi kulli mosuvo.*

(Mazmuni: Ey, san'atingdan yaralmish bir zumda yerusmon, "Kof" u "nun" harfi ila bo'lmish ijod barcha zamon).

G'azal Ollohg'a hamd mazmunida bo'lib, demak, ushbu devon an'anaviy uslub bilan boshlangan. Qo'lyozmaning asosiy matnidan tashqari hoshiyasiga ham she'rlar bitilgan. Jumladan, ushbu varaqning hoshiyasidagi birinchisi na't mazmunidagi quyidagi matla'li g'azaldir:

*Ey rutbai tu nazdi Xudo az hama a'lo,
Yak sandali avadnoi tu sho'd arshi muallo.*

(Mazmuni: Ey, Xudoning nazdida barchadan oliy rutbang sening, Arshi muallodan-da baland birgina past kursing sening.)

Qo'lyozmadagi she'rlar 209 varaqga yozilgan. Undan keyin ham qo'shimcha yana 25 ta hech narsa yozilmagan qog'ozlar mavjud. Qog'ozlar Rusiyadan keltirilgan oliy sifatli fabrika qog'ozlari bo'lib, undagi cho'rtan baliq hamda turli naqshlar va "original" deb yozilgan so'zlari shundan dalolat beradi.

197a sahifada xuddi she'rlar tugaganidek, ochiq joy qo'yilgan, biroq hoshiyalarda muxammaslar yozilgan. Shuningdek, ayni sahifaning pastida boshidagidek kichik to'rtburchak muhr hamda mazkur 7083 raqami hamda rus tilidagi yozuvlar bor. Ya'ni yuqoridagi muhr ushbu varaqqa ham qo'yilgan. Shunga ko'ra, bu yerda kolofon bo'lishi yoki kitob xotimasi bo'lishi mumkin, deb o'yadik, biroq she'rlar davom etgan.

Ustiga raqam qo'yilgan g'azallar 125a (g'azallar yozilgan qora siyohda yana ikkita raqam – 125- chetda, chap tomonda va 248 – o'rtada qo'yilgan) tugagan bo'lib, oxirgi g'azalga "397 g'azali Tabibiy" deb yozilgan bo'lib, "kay" radifli g'azaldir. Biroq shuni aytish lozimki, asl matndagi g'azallar raqamlangani holda hoshiyadagilar raqam qo'yilmasdan, faqat qizil siyohda "g'azali Tabibiy" deb yozib ketilgan. Shuni hisobga olganda jami g'azallarni bu son bilan chiqarib bo'lmaydi. Bundan tashqari 198a varaqda (qit'alardan keyin) yana "g'azali Tabibiy" sarlavhasi

bilan "be" radifli g'azallar keltirilgan. Ular 204b varaqda tugagan va keyin 205a varaqdan "nun" radifli g'azallar boshlangan. Ular 206b sahifagacha davom etgan. 207a sahifada "Musaddasi Tabibiy ba tariqi tazmin" boshlangan. 208a varaqdagi "Mustazodi Tabibiy" 209 a varaqqacha davom etib, kitobni tugallagan. Oxirida hech qanday xotima so'zi yoki kolofon yo'q.

Raqam qo'yilgan she'rlar sirasiga qit'alar (43 ta qit'a), ruboiylar (122 ta ruboiy) kiradi. Boshqa she'rlarga, jumladan muxammaslar, mustazod, musaddaslarga raqam qo'yilmagan. Xullas, devon tarkibi quyidagicha:

1. G'azallar – 397 tasi asosiy matnda raqamlanmagan holda berilgan. Hoshiyadagilar 147 ta raqamlanmagan g'azal

2. Mustazod – 5 ta (3 tasi g'azallardan keyin, 2 tasi oxirida)
3. Muxammas: (15 tasi raqamlangan, qolganlari hoshiyada raqamsiz keltirilgan)
4. Musaddaslar – 6 ta, shulardan 2 tasi tazmin musaddas (Sa'diy va Haziniyga)
5. Qasidalar – 5 ta
6. Musammanlar – 6 ta
7. Tarji'bandlar – 6 ta
8. Soqiyoma – 8 ta
9. Ruboiiyyot – 122 ta
10. Qita'lар – 43 ta.

155 b - 156 a varaqlarda "Musaddas ba tariqi tazmin" (sarlavhalar qizilda) keltirilgan bo'lib, keyin misralar ustiga xato belgisini anglatuvchi qizil chiziq tortilgan. Sarlavhaning pastrog'iga esa "mukarrar" (takrorlangan) degan so'z yozilgan. Bu holat ushbu qo'lyozmani avtograf nusxa ekanligiga ham bir ishora. Chunki, yuqorida aytganimizdek, ushbu qo'lyozmaning hech qayeridan xattoti haqida ma'lumot yoki keltirilgan kolofonlar ko'rinnadi. Shuni hisobga olib, hamda oxirida yana g'azallarning qo'shilganini, shuningdek o'rtadagi 2 ta mustazoddan tashqari oxirida yana ikkita mustazod qo'shish kabilarni (ya'ni qolib ketgan g'azallarni yoki mustazodlarni yana ilova qilish yoki yana qo'shimcha qo'shish ma'nosida) hisobga oladigan bo'lsak, ushbu taxmin yanada aniqroq ekanini aytish mumkin.

Shu o'rinda ikki og'iz so'z mazkur 2 ta "Musaddasi ba tariqi tazmin" to'g'risida. Ulardan birinchisi Sa'diy Sheroyining mashhur "Bargi daraxtoni sabz dar nazari hushyor, Har varaqi daftarest ma'rifati kirdigor" (Hushyor odamning nazarida daraxtlarning yashil bargi Yaratuvchi ma'rifatidan ogoh beruvchi bir daftardir) she'riga, ikkinchisi Haziniy taxallusi bilan she'rlar yozgan shoir (Ahmad Mahmud Haziniy yoki Ziyovuddinxon To'ra Haziniy)ning "Yake meravad, digar oyad ba joy, Jahonro namonand bekadxudoy (Birov ketsa o'rniga boshqasi keladi, Yaratuvchi hech vaqt jahonni kadxudo – boshqaruvchisiz, podshosiz qo'ymaydi) degan she'riga bog'langan musaddaslardir.

198 a varaqdan yana "g'azali Tabibiy" sarlavhalari bilan "be" radifli g'azallar boshlangan. 205 a varaqdan esa "nun" radifli g'azallar keltirilgan. 207 a varaqda "Musaddasi Tabibiy ba tariqi tazmin". 208a varaqda "Mustazodi Tabibiy", 208 b yana bir "Mustazodi Tabibiy" 209 a varaqda tugagan va shu bilan kitobning yozilgan varaqlari oxirlagan. Biroq kitobda yana qo'shimcha 25 ta hech narsa yozilmagan qog'oz mavjud. Agar baytlar sonini aniqlaydigan bo'lsak 397 ni 11 ga (Tabibiy g'azallarining aksariyati 11 bayt – 22 misralik), 4367 bayt hosil bo'ladi. Agar hamma g'azallarni 544 ta deb olinsa, har bir g'azalni 11 baytdan deb hisoblanilsa, unda bu shoirning bitta ushbu devondagi g'azallari 6000 baytga, taxminan 12 ming misraga yetadi, deganidir.

928 inventar raqamli qo'lyozma. .2

Ushbu chiroyli nasta'liq xati bilan ko'chirilgan qo'lyozmada ham aynan 7083 qo'lyozmadagi she'rlar tartib bilan, faqat ramkaga olingan matn ichida raqamlangan holda keltirilgan. Bu holat uning chiroyli va o'qishga oson yozilganidan dalolat beradi. Kotibi Muhammadya'qub Xarrot.

Shu jihatdan buni ham "Tuhfat us-sulton"ning yana bir nusxasi deb aytish mumkin. Biroq, kirish qismida ham, oxirida xattot kalofonida devonning nomi keltirilgan. Kolofonda faqat kotib

qo‘lyozmani kimning buyrug‘i bilan, qachon ko‘chirganiyu, uning Tabibiy devoni ekanligini aytgan, biroq devonining qaysi nomdagi ekanligi esa aytib o‘tilmagan.

Ushbu g‘azal hamda uning davomida keltrilgan g‘azallar aynan 7083 raqamli qo‘lyozma tarkibida ham keltirilgan. Ana shu moslikka asoslanib ushbu har ikkala devon bir xil nomdagi ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Demak, 928 inventar raqamda keltirilgan forsiy devonlarda ham kelgan bo‘lib, agar 7083 dagi keltirilgan "Musammo ba "Tuhfat us-sulton"" jumlasiga suyaniladigan bo‘lsa, unda bu 928 raqamli devon ham "Tuhfat us-sulton" devonining yana bir nusxasi hisoblanadi. Biroq 928-inventar raqamli devonning hech bir joyida, hatto kolofonda ham uning qaysi nomdagi devon ekanligi eslab o‘tilmagan.

Kitob jildi – mustahkam qora charmdan qilingan. Sahhofning ishi ham sifatli bo‘lib uchta naqsh – tepa, o‘rta va pastdagi odatiy muhr-naqshlar mavjud. Jildning har ikki tomonidagi tepe va pastki naqsh ichida "Amali Muhammad Rahim" deya sahhofning ismi keltirilgan. Jildning tepe chap burchagiga qog‘oz yopishtirilgan bo‘lib, unga "21. Devoni Tabibiyi forsiy" deb fors tilida yozilgan. Bundan ushbu qo‘lyozma oldin 21 raqam ostida bo‘lganini ham bilish mumkin.

Kitobning boshida 4 ta hech narsa yozilmagan qog‘oz bor. Ulardan birinchisiga (1a varaqqa) 928 – I Keyin qora va qizil qalamlarda turli sonlar yozilgan. Qog‘ozi rus fabrika qog‘ozi ekanligi uning ichiga cho‘rtan baliq tasviri tushirilgan, qora nuqtalar sepilgan. Qog‘ozning rangi ko‘kimtirsarg‘ish rangda. 4-varaqda ikkita – bitta kichik va katta muhr bosilgan. Ulardan birinchi kichigiga "ГПБ. Уз.Отд.В.рук. № 928. Ўз.ДХК. қўл.бўл.", каттасига "Узбекский Государственный Научно-Исследоват. Институт. Библиотека. Отд_ شه_ Изв. № 928. гор.Самарканда" yozilgan. Shu varaqqa qalamda (institut xodimi tomonidan) 1 raqami qo‘yilgan. Asar shuni hisobga olsak devon 1b varaqdan boshlangan. Odatda qo‘lyozmalar boshlanadigan chiroylı naqshlar bilan boshlangan. Bismillohdan keyin:

Ey yofta az sun'i to ' yaksar bino arzu samo,

Ovardai az kofu nun iyodi kulli mosuvo.

(Mazmuni: Ey, san'atingdan yaralmish bir zumda yeru osmon,

"Kof'u "nun" harfi ila bo‘lmish ijod barcha zamon)

Barcha she’rlar ramkalangan asosiy matnda ketma-ketlikda raqamlangan holatda keltirilgan. Har bir g‘azal ikki ustunga 1-2 misra shaklida yozilgan. Ustunlar qalin zarli (zarhal) chiziqlar bilan ramkaga olingan. Asosiy matnning o‘zi esa to‘q yashil chiziqlar bilan ramkalangan. G‘azallar orasida bir ustun ochiq qolgani uchun mazkur joyga qo‘lyozmani ko‘rib chiqqan xodim tomonidan 2,3,4, raqamlarni raqamlangan.

58- inventar raqamli toshbosma. .3

Toshbosma qalin muqovali, hajmi ham katta. Ustida sahhof naqshlari bor lekin sahhof yozilmagan. 1a varaqda quyidagilar yozilgan: o‘rtada – ئۇرۇملىقىسىن ئەنلىك دەۋەتىنىدا – Devoni Tabibiyi forsiy. Keyin kichik muhr urilgan. Unda lotin hafrlarida "OzDXK 35г 3522 ГПБ. Уз" so‘zleri yozilgan hamda 3522 raqami ustiga xato belgisi sifatida chiziq tortilgan. So‘ngra o‘rtaroqda qiyalab katta muhr urilgan va unda quyidagilar yozilgan: "Узбекский Государственный Научно-Исследоват. Институт. БИБЛИОТЕКА. Отд __ شه__ Изв.№2360 гор.Самарканда". Shundan so‘ng pastda quyidagi izohlar keltirilgan:

ديوان طبیبی مع مخمسات

طبیبی (احمد بن حاجی علی محمد)

خیوه. ناشری: محمد رحیم خان مطبع خورز مشاهیان

. 665 – 1909 . Devoni Tabibiy ma’ muxammasot. Tabibiy (Ahmad bin Hoji Ali Muhammad). Xiva. Matba’i Xorazmshohiyon. 1909 – 665 bet. Nosirov.

Ushbu oxirgi qatorda "Nosirov" familiyasi keltirilgan bo‘lib, bu sharqshunos Abdulla Nosirovdir. Demak, kitobni shu kishi tavsiflab chiqqan. Unga ko‘ra kitob milodiy 1909 yilda Muhammad Rahimxon tashabbusi bilan toshbosma holda chop etilgan ekan. Kitob 665 betdan iborat ekan. (Shu o‘rinda Abdulla Nosirovning kitobini topish va o‘qish maqsadga muvofiq deb bilindi –M.J.).

Asosiy matn 1 b varaqdan boshlangan. Odatdagidek ark uslubida bezatilgan naqshinkor gulli boshlanma varaq o’rtasidan “Bismilloh” bilan debocha boshlangan: “*Hamdi bepoyon va sitoyishi behaddu son On qoyili suxan ofarinro sazost va On nozimi zamoru zamin va makonu makinro ravost, ke devoni vujudi insonro bo anvoyi badoye’ va sanoye’ soxt va sahni dili ishonro baasnofi zevari ulum va ma’rifat bafardoxt. Nazm:*

Xudoje ke xalloqi arzu samo....”.....

Debocha 5 b varaqqacha davom etgan. Matn jadvalga olingan bo‘lib, she’rlarga allohida ikki ustunli jadval chizilgan. Toshbosma bo‘lgani uchunmi, siyohi qo‘lyozma yozuviga qaraganda xiraroq.

6 a varaqda toshbosmalarga bosiladigan va o’rtasiga asar nomi yoziladigan gulli naqsh bosilgan bo‘lib, o’rtada طب دانىد “Devoni Tabibiy” deb yozilgan. Biroq qaysi nomdagi devoni ko’rsatilmagan. Shuning uchun uni tavsiflagan xodim (Abdulla Nosirov bo‘lsa kerak-M.J.) naqsh jadvali ustiga “Mazhar ul-ishtiyoy” deb ruchkada yozib qo‘yilgan. Pastda chap tomonda yana katta muhr (1 varaqdagi kabi) bosilgan bo‘lib, bu safar uning 2360 raqami ustiga chizilmagan. G‘azallar 6b-varaqdan chiroyli naqshinkor boshlanma bilan boshlangan. Bismillohdan keyingi birinchi g‘azal matla’si:

Ey yofsta az sun’i to ‘yaksar bino arzu samo,

Ovardai az kofu nun iyjodi kulli mosuvo.

4-g‘azaldan boshlab g‘azallar arab raqamida (4·5...) raqamlanib ketilgan. G‘azallar 147 a-varaqda tugagan. Jami 544 ta g‘azal. Oxirgi g‘azal “Xush omadi” radifi bilan tugallanuvchi g‘azaldir (928-raqamli devonda ham shunday tugagan, g‘azallar soni ham bir xil, ya’ni 544 ta – M.J.).

G‘azallardan keyin “mustazodlar” boshlangan. Jami beshta mustazod. Ular tugagan varaq oxirida “tammat sho’d” deya bo‘lim tugagan. Shundan so‘ng alohida varaqdan (150a) “muxammasot” boshlangan. Ayni shu varaq o’rtasiga 1-varaqdagi kabi kichik muhr bosilgan (ichida 35g.3522 raqamlari bor), lekin muhrning ustiga xato belgisi sifatida “X” chizilgan.

Muxammaslar ham xuddi alohida kitob singari gulli boshlanma bilan hamda مخ ارس طبىءى “Muxammasoti Tabibiyi forsiy” jumlalari bilan boshlangan. Ular ham raqamlangan bo‘lib, 215 b-varaqda tugagan. Jami 125 ta muxammas. Oxirgi muxammas “Ravshan g‘azaliga” bog‘langan bo‘lib, 928-devonda ham shunday edi.

Muxammaslardan keyin ayni shu varaqdan (215b) “Musaddasi Tabibiy ba tariqi tazmin” boshlanadi. Musaddaslar ham raqamlangan. Jami 7 ta musaddas. 222 a-varaqdan “Musammani Tabibiy” sarlavhasi bilan musamman (sakkizlik)lar boshlanadi. Jami 6 ta musamman. 228 a-varaqdan “Tarji’oti Tabibiy” sarlavhasi bilan tarji’bandlar boshlanadi. Ular ham raqamlangan bo‘lib, jami 6 ta tarji’band. 239b-varaqdan “Birlanji soqiyonomai Tabibiy” boshlanib, 241 b-varaqda (sakkizlanji soqiyona) tugagan. Jami 8 ta soqiyona. 252 b-varaqqacha davom etgan. So‘ngra ana shu varaqdan “Birlanji qasidai Tabibiy” boshlanadi. Jami 5 ta qasida. 262a-varaqdan “Ruboiyyoti Tabibiy” boshlanadi. Barchasi raqamlangan.

Shu o‘rinda ruboiylar keltirilgan varaqlarda chalkashliklar borligini aytib ketish maqsadga muvofiq. Ya’ni 264a-varaqdagi 27 raqamidan keyin 264b-varaqdan birdaniga 82-ruboiy boshlanib ketadi. Ushbu o‘rinda toshbosmada mazkur varaqlar almashinib ketgan. Natijada 82- 95- ruboiylar o’rtaga, ya’ni 264b-265a -varaqlarga tushib qolgan. 265 b varaqdan esa 41- ruboiy boshlanib ketgan. Ular 268 a-sahifadagi 81-ruboiygacha kelib, keyin 268b varaqdan 27 ruboioyning matni berilgan. Natijada 27dan 41 ruboiygacha (27-40) 269a varaq oxirigacha davom etgan. 269 b-varaqdan yana 96 ruboiy boshlanib, ruboiylar qatori izga tushib ketgan. Demak, bundan ma’lum bo‘ladiki, ruboiylar yozilgan ushbu varaqlarda bosmaxona aybi bilan varaqlar almashib ketilgan. Ruboiylar jami 123 ta bo‘lib, 271b – varaqda tugagan.

271b -varaqdan “Muqatta’oti Tabibiy” sarlavhasi bilan, shoir qit’alari boshlangan. Jami 42 ta qit’a. Shu bilan 275b varaqda kitobning birinchi qismidagi ushbu devon tugagan. Oxirida kolofon yo‘q. Shundan so‘ng keyingi “Devoni Tabibiy” boshlanib ketgan. Bundan shu narsa ma’lum

bo‘ladiki, har ikkala devon uchun bitta oxirida kolofon berilgan. Xullas ushbu devon quyidagicha tartib berilgan:

1. G‘azallar – 544 ta;
2. Mustazod – 5 ta;
3. Muxammasot – 125 ta;
4. Musaddas – 7 ta;
5. Musamman – 6 ta;
6. Tarji’band – 6 ta;
7. Soqiyonna – 8 ta;
8. Qasida – 5 ta;
9. Ruboii 123 ta;
10. Qit’a – 42 ta.

Kitob muqovasi qalin: qizil charm ustiga qalin muqova ishlangan, sahhoflar uchun mo‘ljallangan o‘yma naqshlar bor, biroq ularda ism keltirilmagan. Muqova laba’ (ikki tomon birlashgan joyda)da pastdagi kichik qog‘ozga 58 raqami, o‘rtadagi uzun qog‘ozga esa “Devoni Tabibiy ma‘a muxammasot I, II, III” deb yozilgan. Bu ushbu kitobning uchta qismdan iborat ekanligini bildiradi. Aslida esa 2-qismdagi “Muxammasot” birinchi devonga tegishli bo‘lib, Tabibiyning ushbu bo‘limdagi forsiy muxammaslari ko‘p bo‘lgani uchun kotib uni ajratgan holda keltirgan. Zero, ushbu muxammaslar 7083 raqamli qo‘lyozmada devon tarkibiga kiritilgan holda, ba‘zilari hoshiyalarda keltirilgan. Bu holatdan yana bir narsani aniqlash mumkinki, Tabibiyning birinchi forsiy devoni hajm jihatdan katta hajmga ega.

Agar ushbu 58 raqamli toshbosmadagi birinchi keltirilgan devon tarkibi 7083 va 928 qo‘lyozmalari tarkibi bilan aynan bir xil ekanligini hisobga olsak va 7083 dagi kotib tomonidan **“Musammo ba Tuhfat us-sulton”** sarlavhasiga tayansak, toshbosmadagi birinchi devonga boshlanish joyiga institut xodimi Abdulla Nosirov tomonidan siyohli ruchkada yozilgan “Mazhar ul-ishtyoq” degan sarlavha noto‘g‘ri ekanligiga amin bo‘lamiz. Ana shu noto‘g‘ri sarlavha eronlik olim I.Xudoyorning adashishiga ham sabab bo‘lgan va u Tabibiyning birinchi forsiy devoni “Mazhar ul-ishtyoq” va ikkinchisini “Mir’ot ul-ishq” degan xulosaga kelgan[5.150.].

Shu o‘rinda ushbu birinchi devonning hajmiga ham diqqat qaratib o‘tsak. Agar devondagi g‘azallar baytalarini hisoblasak $544 * 11 = 5984$ bayt, (11 968 misra). Demak, faqat g‘azallarning o‘zi 6000 baytni tashkil qilmoqda. Har biri kamida 7 ta banddan iborat (ya’ni kamida 7 baytlik g‘azalga bog‘langan muxammasni hisoblasak) 125 ta muxammas – 35 misra – 17,5 bayt bo‘ladi. Jami $125 * 17,5 = 2125$ bayt. Vaholanki, devondagi birinchi “Muxammasi Tabibiy g‘azali G‘iyosiy” deb nomlangan dastlabki na’t muxammas 23 band (115 misra)dan iboratligini hisobga olsak muxammaslar ham ancha katta hajmga egaligiga amin bo‘lamiz. Shuning uchun bo‘lsa kerak 58-toshbosmada “Muxammasot” alohida bo‘lim sifatida keltirilgan. Agar yana 8 ta janrdagi she’rlarning jami baytlari qo‘silsa birgina devonning o‘zida anchagina adabiy merosni borligi ma‘lum bo‘ladi. Biroq, eronlik olim I.Xudoyor o‘zining “G‘aribahoyi oshno” risolasida Tabibiyning jami forsiy merosini 13 ming bayt atrofida deb xulosa chaqargan[5.175.]. Agar olim shoirning jami merosini hisoblab chiqqanida bunday noto‘g‘ri xulosaga kelmasdi. Chunki birgina “Tuhfat us-sulton”ning o‘zida shunchalik bayt miqdorida asar borligini kunday ravshan bo‘lib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zRFASHidagi Ahmad Tabibiya mansub ushbu forsiy devon nusxalarini tavsif qilib chiqish natijasida shoirning birinchi devoni “Tuhfat us-sulton” hajm jihatidan ham, mazmun-mundarijdasi jihatidan ham devon talablariga javob bera olishiga amin bo‘ldik. Undagi 10 xil janrdagi barcha she’rlar turli mavzularda – ijtimoiy, irfoniy, oshiqona, hasbi hol mazmunlarida bo‘lib, shoirning an'anaga sodiq holda salaflar ijodini davom ettirganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Buriyeva, F. (2025, March). Yunus Emro she'riyati: adabiy an'ana va individual USLUB. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 15, pp. 37-39).
2. Muborak maktublar. Xorazmiy. Muhabbatnoma. –T.: Fan. 1989.
3. "Tuhfat us-sulton" devoni. O'zRFASHI qo'lyozmalar xazinasi. №7083 inventar raqamli qo'lyozma.
4. "Tuhfat us-sulton" devoni. O'zRFASHI qo'lyozmalar xazinasi. №928 inventar raqamli qo'lyozma.
5. "Tuhfat us-sulton" devoni. O'zRFASHI qo'lyozmalar xazinasi. №58- inventar raqamli toshbosma.
6. Xudoyor, I. G'aribahoyi oshno. –Tehron: Tamadduni milliy, 1384/2005. –S.150-175.
7. Nazarova X. G. (2024). Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlarda tasavvuf talqining yorqinligi. *Research focus*, 3(11), 46-50.